



INTELLEKTUAL NAZORATNING IXTIYORSIZ VA IXTIYORIY SHAKLLARI METAKOGNITIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (TARIX FANI MISOLIDA)

Dostonbek Bobojonov G'ofurovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish modelida intellektual nazoratning ixtiyorsiz va ixtiyoriy shakllarini farqlash masalasi tahlil qilinadi. Intellektual nazoratning ko'p darajali regulativ tizim sifatidagi xususiyatlari ochib berilib, ularning tarix fanini o'qitish jarayonidagi namoyon bo'lish shakllari yoritiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak tarix o'qituvchilarida bilish faoliyatining moslashuvchanligi va ongli boshqarilishini ta'minlashda mazkur mexanizmlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: metakognitiv kompetentlik, intellektual nazorat, ixtiyorsiz nazorat, ixtiyoriy nazorat, tarixiy bilish, regulatsiya.

Аннотация: В статье анализируется проблема разграничения произвольных и непроизвольных форм интеллектуального контроля в модели развития метакогнитивной компетентности. Раскрываются особенности интеллектуального контроля как многоуровневой регулятивной системы, а также освещаются формы его проявления в процессе обучения истории. Результаты исследования показывают, что данные механизмы имеют существенное значение для обеспечения осознанного и гибкого управления познавательной деятельностью будущих учителей истории.

Ключевые слова: метакогнитивная компетентность, интеллектуальный контроль, непроизвольный контроль, произвольный контроль, историческое познание, регуляция.

Abstract: This article analyzes the issue of distinguishing voluntary and involuntary forms of intellectual control within the model of developing metacognitive competence. The features of intellectual control as a multilevel regulatory system are revealed, and the forms of its manifestation in the process of teaching history are described. The research findings demonstrate that these mechanisms play a significant role in ensuring flexible and conscious regulation of the cognitive activity of future history teachers.

Keywords: metacognitive competence, intellectual control, involuntary control, voluntary control, historical cognition, regulation.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish hamda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi. Xususan, ta'lim jarayonida mustaqil fikrlaydigan, refleksiv yondasha oladigan va bilish



faoliyatini ongli boshqarishga qodir pedagoglarni tayyorlash masalasi davlat ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qator farmon va qarorlarida ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv va metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlangan^{33 34}. Ushbu vazifalar pedagog faoliyatida bilish jarayonlarini faqat mazmuniy jihatdan emas, balki regulativ va refleksiv mexanizmlar orqali boshqarishni taqozo etadi.

Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida fanlarni, jumladan tarix fanini o'qitishda bilimlarni tayyor holda uzatishdan ko'ra, talabalarda tarixiy tafakkur, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, muqobil talqinlarni solishtirish va o'z fikrini asoslab bera olish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda³⁵. Bu esa bo'lajak tarix o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish, xususan bilish faoliyatini boshqaruvchi intellektual nazoratning ixtiyorsiz va ixtiyoriy shakllarini shakllantirish masalasini dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida kun tartibiga olib chiqadi.

Metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish modelida intellektual nazoratning ixtiyorsiz va ixtiyoriy shakllarini farqlash bilish faoliyatining regulatsiyasini ko'p darajali tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv bilish jarayonlarini nafaqat natija, balki ularning kechish mexanizmlari nuqtai nazaridan ham tahlil qilishga xizmat qiladi.

Ixtiyorsiz intellektual nazorat metakognitiv tajriba tuzilmalariga tayanib, bilish jarayonlarining avtomatlashtirilgan va vaziyatga tez moslashuvchi regulatsiyasini ifodalaydi. Ushbu nazorat shakli ongli rejalashtirishdan oldin ishga tushib, bilish faoliyatining barqarorligi va tezkorligini ta'minlaydi. Ixtiyorsiz intellektual nazoratning shakllanganlik darajasi bir qator indikatorlar orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, kognitiv uslublarning xususiyatlari ("skanerlashning torligi-kengligi", "impulsivlik-refleksivlik", "maydonga bog'liqlik-maydondan mustaqillik"), baholar va mulohazalar ustidan kategoriyaviy nazorat, subyektiv vaqt doirasida yo'nalishning o'ziga xosligi hamda vaqt bo'yicha xaotik orientatsiya effektlari shular jumlasidandir. Mazkur ko'rsatkichlar bilish jarayonlarining barqarorligi va moslashuvchanligini aks ettiradi.

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida : PF-5847-son Farmon. – Toshkent, 2019.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida : PQ-4884-son Qaror. – Toshkent, 2020.

³⁵ Abdullayeva N.R.

Oliy ta'limda tarix fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik asoslari // Pedagogik ta'lim. – 2021. – №3. – B. 15–20.



Tarix faniga tatbiq etilganda, ixtiyorsiz intellektual nazorat tarixiy matnlarni tez idrok etish, manbalarni dastlabki saralash hamda faktlar oqimida muhim bog'lanishlarni "tez ko'rish" kabi jarayonlarda namoyon bo'ladi. Bu daraja o'qituvchining bilish jarayoniga tabiiy moslashuvini ta'minlab, keyingi ongli regulatsiya uchun tayanch asos yaratadi. Ixtiyoriy intellektual nazorat esa bilish faoliyatini ongli boshqarishga xizmat qiluvchi qobiliyatlar majmuasini qamrab olib, metakognitiv kompetentlikning yuqori operatsion darajasini ifodalaydi. Mazkur nazorat shakli quyidagi qobiliyatlar orqali amalga oshiriladi:

a) rejalashtirish — intellektual faoliyat maqsadini belgilash va harakatlar ketma-ketligini tuzish;

b) oldindan ko'ra bilish (proгноzlash) — faoliyat natijalarini taxmin qilish va ehtimoliy xatolarni oldindan anglash;

v) baholash — o'z bilish resurslari va tanlangan strategiyalarni tanqidiy tahlil qilish; **g)** faoliyatni to'xtatish yoki sekinlashtirish — zarur hollarda bilish jarayonini ongli qayta tashkil etish; **d)** o'qish strategiyalarini tanlash va modifikatsiya qilish — vazifa sharoitlariga mos strategiyalarni moslashtirish³⁶.

Tarix fanida ixtiyoriy intellektual nazorat tarixiy muammoni aniq qo'yish, manbalarni ongli tanlash, talqin strategiyasini qayta ko'rib chiqish hamda tarixiy xulosalarni tanqidiy baholash jarayonlarida namoyon bo'ladi. Bu holat tarixiy bilish faoliyatining ilmiy asoslanganligini va refleksiv xarakterini ta'minlaydi.

Shu bois ixtiyorsiz va ixtiyoriy intellektual nazoratning uyg'unligi bo'lajak tarix o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish modelida bilish faoliyatining moslashuvchanligi, barqarorligi va ongli boshqarilishini ta'minlovchi muhim shart sifatida qaraladi.

Xulosa

Intellektual nazoratning ixtiyorsiz va ixtiyoriy shakllarini integratsiyalash metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix fanini o'qitish jarayonida mazkur mexanizmlarning uyg'un qo'llanilishi bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini ongli, refleksiv va strategik boshqarishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida : PF-5847-son Farmon. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

³⁶ Холодная М.А. Психология интеллекта: парадоксы исследования / М.А. Холодная. – Томск : Изд-во Том. ун-та ; М. : Барс, 4131997. – 392 с.



Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida : PQ-4884-son Qaror. – Toshkent, 2020.

3. Abdullayeva N.R. Oliy ta'limda tarix fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik asoslari // Pedagogik ta'lim. – 2021. – №3. – B. 15–20.

4. Холодная М.А. Психология интеллекта: парадоксы исследования / М.А. Холодная. – Томск : Изд-во Том. ун-та ; М. : Барс,

5. Карпов А.В., Скитяева И.М. Психология рефлексии. – М. : Институт психологии РАН, 2005.

6. Ляудис В.Я. Развитие памяти в обучении. – М. : Издательство МГУ, 1977. – 176 с.

7. Ляудис В.Я. Память и мышление в процессе обучения. – М. : Педагогика, 1981

8. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry // American Psychologist. – 1979.

9. Sternberg R.J. Beyond IQ: A triarchic theory of human intelligence. – Cambridge : Cambridge University Press, 1985.

10. Borkowski J.G., Carr M., Pressley M. “Spontaneous” strategy use: Perspectives from metacognitive theory // Intelligence. – 1987. – Vol.

11. Brown A.L. Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms // Metacognition, Motivation, and Understanding. – Hillsdale, NJ : Erlbaum, 1987

12. Paris S.G., Winograd P. How metacognition can promote academic learning and instruction // Dimensions of Thinking and Cognitive Instruction. – Hillsdale, NJ : Erlbaum, 1990.

13. Kashapov M.M. Metacognitive regulation of professional thinking. – Yaroslavl : YSPU Press, 2010.